

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

**Aqli zaiflik nuqsonini “ildiz ottirayotgan” muammoli holatlar**

*Nizomiy nomli TDPU*

*Oligofrenopedagogika yo'nalishi*

*magistranti Niyoziyova Dilfuza*

Bugungi kunda ta'lim islohatlari jadal rivojlanayotgan bir paytda, imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Xususan aqli zaif bolalarning o'z o'ziga xizmat turlarini shakllantirish, jamiyatda o'z o'rnnini topishga ko'maklashish masalalari ham ta'limning ajralmas bo'lagiga aylandi. Bu sohadagi xató kamchiliklar, muammolarni bartaraf etishda tibbiyot va boshqa sohalar bilan keng tarmoqli aloqalarni o'rnatish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xususan Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, autistik spektr buzilishi kuzatilayotgan bolalar holati har 160 bolaning birida kuzatiladi va AASB bo'lgan bolalar soni juda tezlikda o'sib bormoqda. AQSHda bu muammo yetarlicha keng yoritilgan hamda Kasalliklarni nazorat qilish va profilaktika markazlarining ma'lumot berishlaricha, 2008 yilda 125 nafar bolaga bir nafar AASB bo'lgan bola to'g'ri kelgan bo'lsa, 2018 yilda allaqachon 59 boladan biriga autizm tashxisi qo'yilgan.

Rossiyada so'nggi besh yil ichida autizmi bor insonlar soni 2014 yilda ro'yxatga olingan 13897 kishidan 2018 yilda 31415 kishiga ko'paydi. Afsuski, rivojlanishda nisbatan orqada bo'lgan mamlakatlarda bu nuqsonlar bilan xabardorlikning past darajada ekanligi, mutaxassislarning yetishmasligi, tibbiy diagnostika vositalarining yo'qligi va oilaviy daromadlarning o'rtacha darajada ekanligi yoki umuman pastligi tufayli autizmning tarqalganligi to'g'risida aholining quyi qatlamlari yetarlicha ma'lumotga ega emas.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, birgina autizm sindromli bolalar soni kundan kunga oshib bormoqda. Bu dunyo bo'yicha aqli zaif bolalar guruhining 3% ni tarkibiy qismidir. Buni davlatlar, hududlar miqqosida hisoblaydigan bo'lsak, juda katta % lar kelib chiqadi.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

O'zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalarning turli xil toifalar (AASB, Daun sindromi, DEGS, disleksiya va boshqalar) bo'yicha aniq soni to'g'risidagi rasmiy statistik ma'lumotlar yetarlicha emas. Hududlar, viloyatlar kesimida nisbiy raqamlargina mavjud. Davlat statistika qo'mitasi 2000 yildan beri «jismoniy yoki aqliy rivojlanishida og'ish» bo'lgan o'quvchi-bolalar soni to'g'risida ba'zi ma'lumotlarni taqdim etib kelmoqda. XTV rasmiy saytida «Imkoniyati cheklangan shaxslar uchun» bo'limi mavjud, ammo u yerda bunday o'quvchilar soni to'g'risida butunlay ishonchli ma'lumotlar mavjud deb ayta olmaymiz. Chunki aholi o'rtasida nuqsonli bolalarni keng ommadan ajratish va bekitish holatlari judayam ko'p uchraydi. Faqatgina Sog'liqni saqlash vazirligiga yozma so'rov orqali 2013 yildan 2019 yilgacha bo'lgan davrda bolalar serebral sholligi (BSSH) bo'lgan bolalar haqidagi ba'zi ma'lumotlar to'liq oshkor etilgan.

Ta'lim sohasi vakillari ko'pincha bolani tarbiyalash va unga ta'lim berish to'g'ridan-to'g'ri oilaga - ota-onalar, vasiylar yoki qarindoshlarga bog'liq deb ta'kidlashadi. Amaldorlarning bolalar rivojlanishida ota-onalarning o'rni muhimligini ta'kidlashlariga qaramay, aslida juda kamchilik ularning fikri va ovozini inobatga oladi. Har bir ota-ona o'z farzandining «mutaxassis» ekanligini tan olish muhim hamda ular o'quv dasturlarini ishlab chiqishda bevosita jalb etilishi va bolalarining ehtiyojlarini o'rganish bo'yicha birgalikda tadqiqotlar o'tkazishlari kerak.

Aslida ular soni ko'proq, ammo ota-onalar ko'pincha bolalarini yashirishadi. Eng asosiysi, bizda aqli zaiflik tashxisini qo'ya oladigan mahoratli mutaxassis deyarli soni kam. Bunday mutaxassislarni barmoqlar bilan sanash mumkin! Viloyatlarda esa ota-onalar qayerga murojaat qilishni, qayerda to'g'ri tashxis qo'yilishini va bu bilan qanday ishlash kerakligini bilishmaydi.

Yana bir muammo - odatiy maktablar sharoitida ta'lim olishda qiynalayotgan o'quvchilarni individual qo'llab-quvvatlaydigan pedagog-murabbiy yetishmasligi. Ota-onalar bu muammoni o'z moddiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda hal qilishga majbur. Hozirgi vaqtda rivojlanishda o'ziga xosliklari bo'lgan bolalar bilan ishlash tajribasiga ega defektologlar yoki psixologlar bu vazifani tijorat

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

asosida amalga oshirmoqdalar.

Ta'lim dasturlari vajarayonida jismoniy holati yoki rivojlanishdagi o'ziga xosliklardan qat'i nazar, har bir o'quvchining individual ehtiyojlari hisobga olinishi lozim. Biz bolalarni nogironlik alomatlari bo'yicha kamsitishimiz emas, balki ularga olishlari mumkin bo'lgan har narsani berishimiz kerak. Ta'lim dasturini rivojlantirib, qamrovini oshirishni xohlar ekanmiz, «bitta dastur barcha uchun» tamoyilining allaqachon eskirgani va bugungi kun talablariga javob bermasligini tan olishimiz zarur. Buning uchun bolaning o'ziga xosliklaridan kelib chiqqan holda individual ta'lim dasturini shakllantirish lozim. «Inklyuziya ta'lim to'g'risidagi asosiy qonunda mактабгача та'limdan boshlab barcha huquqlar mustahkamlangan bo'lsagina rivojlanishi mumkin. Aks holda barcha qonunosti hujjatlari "sandiqda chang bosib yotaveradi. Ota-onalar o'z farzandlarining qiziqishidan kelib chiqqan holda ularni ixtisoslashgan va umumta'lim maktablarida o'qishlarini tanlash hamda umumta'lim maktablarida qonuniy huquqlari bo'lgan maxsus sharoitlar yaratilishini talab qilish imkoniyatiga ega bo'lsalar, o'shandagina haqiqatdan ham yaxshi tomonga o'zgarishlar boshlanadi.

2030-yilgacha O'zbekiston xalq ta'limi tizmini rivojlantirish konsepsiyasida inklyuziv ta'lim dasturlari yetarlicha rivojlanmagani hamda moslashtirilgan umumta'lim dasturlarini ishlab chiqish, OTM dasturlarida inklyuziv ta'lim bo'yicha o'qituvchilarni maxsus tayyorlash zarurligi qayd etilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqoridagi raqamlarga murojat qiladigan bo'lsak maxsus pedagogika sohasida yechimini kutayotgan muammolar judayam ko'p. Ularni bartaraf etish maqsadini oldimizga qo'yar ekanmiz, sohamiz doirasida aholi o'rtasida, targ'ibot va tashviqot ishlarida ham bayroqni qo'lga olishimiz kerak bo'ladi. Tibbiyat hodimlari bilan bir yelkada faoliyat yuritsakgina, mehnatimiz ko'zga ko'rinishi mumkin. Aks holda muammolar "bolalab" ketaveradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Maxsus pedagogika – P.M.Po'latova, L.Sh.Nurmuhammedova, D.B.Yakubjanova, Z.N.Mamarajabova, Sh.M.Amirsaidova, A.D.Sultonova. "Fan va texnologiya" nashriyoti- 2014.

## *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*

---

2.Ganiyev.O. 2020 IMPIROVING TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF MATEMATHODICAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS .Arxiv nauchniy publikatsiy JSPI.

3.Musurmonova oila pedagogikasi – T.O’qituvchi -2004 .

4.Karimova .Oila huquq asoslari . -T.2003.